

**INTEGRATIV TA'LIM YONDASHUVI ASOSIDA LOTIN TILIDA SON
SO'Z TURKUMINI O'QITISH METODIKASI**

Ashurbayeva Ruqiya Qahhorovna

*Buxoro davlat tibbiyot instituti, o`zbek tili va adabiyoti,
rus va ingliz tillari kafedrasi dotsenti
E-mail: ashurbayeva.rukiya@bsmi.uz
<https://orcid.org/0009-0002-5342-5275>*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada lotin tilining son so'z turkumini integrativ ta'lism yondashuviga asosida o'qitish metodikasi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda fanlararo integratsiya tamoyillari, xususan, anatomiya, geometriya va tarix fanlari bilan bog'liq holda dars jarayonini tashkil etish tajribalari keltirilgan. Integrativ yondashuv asosida ishlab chiqilgan dars moduli asosida o'tkazilgan sinovlar natijasida talabalar kognitiv va pragmatik salohiyatining ortgani, fanlararo bog'liqlikni tushunish darajasining oshgani kuzatildi. Tadqiqot lotin tilidagi lingvistik birliklarning amaliy kontekstda o'zlashtirilishi o'quvchilarning tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur maqola filologiya, tibbiyot va pedagogika sohalaridagi o'qituvchilar hamda metodistlar uchun nazariy va amaliy jihatdan foydali bo'lishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *lotin tili, son so'z turkumi, integrativ ta'lism, anatomiya, geometriya, tarix, fanlararo integratsiya, kognitiv salohiyat, metodika, lingvistik birliklar*

Kirish. Bugungi globallashuv va bilimlar integratsiyasi davrida ta'lism jarayonining asosiy maqsadi – har tomonlama barkamol, ijodkor va kompleks fikrlovchi shaxsni tarbiyalashdir. Shu nuqtai nazardan, fanlararo yondashuv asosida o'quvchilarni zamonaviy ilm-fan asosida bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish dolzarb masalaga aylangan. Integrativ ta'lism tamoyillari aynan ana shunday talab va ehtiyojlardan kelib chiqadi. Bu yondashuv orqali fanlararo bog'liqlik, mazmuniy yaxlitlik va tahliliy fikrlashga asoslangan o'quv muhiti shakllanadi. Lotin tili o'rgatish jarayonida integrativ yondashuv, ayniqsa, son so'z turkumini o'qitishda samarali metod sifatida e'tiborga loyiqidir. Chunki bu turkumda o'rganiladigan lingvistik birliklar tibbiyot (anatomiya), matematika (geometriya), tarix va boshqa fanlar bilan bevosita aloqadorlikda mavjud bo'lib, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VII son, Iyun

Metodologiya. Tadqiqot metodologiyasi integrativ ta'lif yondashuviga asoslangan bo'lib, unda fanlararo bog'liqlik orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish maqsad qilingan. Lotin tilida son so'z turkumini o'qitishda anatomiya va geometriya fanlari bilan integratsiyalangan dars moduli ishlab chiqildi. Ushbu modulda quyidagi metodlar qo'llandi:

- Vizual vositalar: inson tanasi organlari (qovurg'alar, qo'l barmoqlari) rasmlari, mulyajlar.
- Grafik organayzerlar: sonlarning tartibiy va miqdoriy tasnifi, latince-geometriya terminlar jadvali.
- Interaktiv topshiriqlar: tibbiy terminlar bilan sonlarni qo'llash mashqlari, geometrik shakllarni aniqlash va ularni lotincha nomlash.
- Fanlararo integratsiya:
 - Anatomiya bilan – qovurg'alar nomlanishi (masalan: costa prima, costa secunda va h.k.).
 - Geometriya bilan – geometrik shakllar nomlari (masalan: triangulus, pentagonus, octagonus).
 - Tarix bilan – Rim oy nomlari (September, October, December)ning sonlar bilan bog'liqligi.

Tadqiqot davomida o'quvchilar ishtirokida sinov darslari o'tkazildi va ularning kognitiv-pragmatik salohiyatidagi o'zgarishlar o'rnanildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslar:

- Talabalarning lotin tili son so'z turkumi bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirdi.
- Fanlararo bog'liqlikni anglash, real hayotiy misollar orqali o'rgatilgan bilimlarni tezroq va mustahkamroq o'zlashtirishga yordam berdi.
- Kognitiv va pragmatik salohiyatning rivojlanishi kuzatildi: talabalarda tahliliy fikrlash, qiyoslash va tizimli yondashuv shakllandi.
- Lotin tilining amaliy ahamiyatini anglash, ya'ni tibbiyat va tabiiy fanlarda qo'llanilish darjasini ortdi.
- Interaktiv metodlar orqali dars jarayonining qiziqarli va samarali o'tishi ta'minlandi.

Muhokama. Lotin tilida son so'z turkumini o'qitishda integrativ yondashuvning joriy etilishi o'quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Anatomiya fanidagi qo'l barmoqlari (digitus primus – pollex, digitus secundus – index va h.k.) hamda qovurg'alar (costa prima – costa duodecima) sonlar orqali ifodalanishi nafaqat lingvistik birliklarni, balki ularning amaliy funksiyalarini ham anglashga xizmat qiladi. Geometriyadagi tri, penta, octa kabi prefikslar esa

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VII son, Iyun

terminologik kompetensiyani mustahkamlaydi. Bundan tashqari, yil oylarining tarixiy nomlanishida ham lotin tilidagi sonlarning izchil ifodasi kuzatiladi. Bularning barchasi fanlararo aloqadorlik asosida bilimlarni chuqurlashtirish, murakkab tushunchalarni soddalashtirish va o'zlashtirishni osonlashtiradi.

Xulosa. Integrativ ta'lism yondashuvi asosida lotin tilining son so'z turkumini o'qitish nafaqat ushbu turkumni mukammal o'zlashtirishga, balki fanlararo tahlil ko'nikmasi, kognitiv-pragmatik salohiyatni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Darslarda anatomiya, geometriya, tarix fanlari bilan integratsiyalangan yondashuv qo'llanilganda, o'quvchilar mavzuni hayotiy kontekstda qabul qilishadi, bilimlarni mustahkam eslab qolishadi va ularni amalda qo'llashga o'rghanishadi. Bu esa o'z navbatida ta'lism samaradorligini oshirib, zamonaviy ta'limgning asosiymaqsadi – har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ш.М.Мирзиёев. Педагог ва шифокорлар билан видеоселектордаги нутқидан. 2022.
2. Р.М.Абдуллаева, М.А.Сайдуллайева, С.СХ.Рустамова, О.С.Паймина “Лотин тили ва терминология” Тошкент., 2020
3. М.Н.Болиев “Лотин тили ва тиббиёт терминологияси” Абу али ибн сино номидаги тиббиёт нашриёти, Тошкент., 2002
4. Г.С.Агзамова, З.Ф. Умарова “Терапия фанларини ўқитишга замонавий ёндошувлар” модули бўйича ўқув–услубий мажмуа. Тошкент., 2019
5. М.Н. Чернявский «Латынский язык и основы медицинской терминологии». 1989
6. Изучения латинского языка как фактора интеллектуального и культурного развития студентов - медиков. М.Н.И сроилова. -Таш кент: «Fan va texnoiogiya», 2011.
7. Qisqacha siyosiy lug‘at. – Toshkent: O‘zbekiston, 1983.-132b.
8. Jalolov A., Xonazarov Q. Mustaqillik(Izohli ilmiy-ommabop lug‘at) – Toshkent: “SHARQ” –matbaa konserni bosh tahririyati, 1998. - 71 b.
9. Iqtisodiyotga oid atamalar va tushunchalar izohli lug‘ati. Toshkent:
10. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, 2004.-15 b.
11. Hojiyev A. Tilshnoslik terminlarining izohli lug‘ati. –Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. - 44 b.
12. Ashurbayeva R.K. Effective methods of teaching the mother tongue in the education system// “International Engineering Journal For Research & Development”. –Vol.5 Issue 7E-ISSN NO: -2349-0721. (Impact Factor: SJIF = 6.554)
13. Ashurbayeva R.K. Integrative approaches and methods towards the Implementation in the system of administrative education// International Journal of

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VII son, Iyun

Economy and Innovation GOSPODARKA I INNOWACJE. Volume: 27/2022
Economy and Innovation ISSN:2545-0573/61-65-p.

14. Ashurbayeva R.K. Reforming the independent system of Uzbekistan for the improvement of integrated education//Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture Innovative Academy Research Support Center. Published Date:-17 05-2022.- 64-70-p. (Impact Factor: SJIF = 6.051)

15. Ashurbayeva R.K. Sharqda integrativ ta'limotning ildizi//European international journal of multidisciplinary research and management studies. Volume: 02 Issue: 08 August 2022 Published Date: – 30-08-2022. –89-92-p.

Internet saytlar:

1.

1.https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izo hli%20lug'ati%20-%20I.pdf

2. <https://www.ziyouz.com/>

3. <https://en.wikipedia.org/wiki/Integration>